

Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishning muhimligi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Jurayev Azizjon

Annotatsiya: Mazkur maqolada kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishning muhim jihatlari, shuningdek, uning moliyaviy institutlardagi o'rni yoritiladi. Kassa ishini tashkil etishda hozirgi zamон texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati tobora ortib borayotgani, banklarda naqd pul bilan bog'liq operatsiyalarni optimallashtitish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kassa ishi, naqd pullar, inkassatsiya, tijorat banklari, naqd pul va boshqa qimmatliklar, bank filiali.

Naqd pul mablag'larini samarali boshqarish moliya institutlari, ayniqsa tijorat banklari uchun muhum ahamiyatga ega. Hammaga ma'lumki, moliyaviy institutlar uchun naqd pul bilan ishlash tartib-qoidalarini tashkil etish uzlusiz operatsiyalarni ta'minlash, likvidlilikni darajasini saqlash va operatsion yaxlitligi uchun ham juda muhimdir. Bugungi kunga kelib O'zbekistondagi tijorat banklarida naqd pullar va boshqa qimmatliklar bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishda mavjud yo'riqnomalar asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Naqd pulni boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki boshqaaruving qarori asosida 2018-yil 29-iyunda ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir yo'riqnomani tasdiqlash haqida" yo'riqnomasi asos bo'lib xizmat qiladi. Yo'riqnomasi barcha tijorat banklar uchun naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilish, kassa ishini tashkil etish uchun muhimdir. Ushbu yo'riqnomada bankda kassa ishini tashkil etish, kirim va chiqim kassa operasiyalari, kechki kassaga pul va boshqa qimmatliklani qabul qilish va

saqlashga doir muhim jarayonlar tartibga solingan. Jumladan:Bosh bank tomonidan yiliga kamida bir marotaba o'z tasarrufidagi bank filiallarida kassa filiallarida kassa ishini tashkil etilishi va kassa operatsiyalarini bajarishda mazkur Yo'riqnomalablariga rioya etilishini tekshirishilishi lozim. Bosh bank xodimlari tekshirish natijasida bank filialida aniqlangan xato va kamchiliklarni ushbu Yo'riqnomalablariga asosan bartaraf etish yuzasidan amaliy yordam berishi shart.

Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish kassir va uning vazifalari, qurilmalar va kassada yuritiladigan boshqa amaliyotlar haqida qaror qabul qilishni o'z ichiga oladi. Banklarda kassa ishini to'g'ri tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni but saqlanishini ta'minlash bank bosh rahbari, bosh buxgalter va kassa mudiri ma'suldir. Bank tomonidan mijozlarga kassa xizmatini ko'rsatish bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan yuqorida aytib o'tilgan Yo'riqnomabelgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bank aylanma kassasi orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarga xizmat ko'rsatishda buxgalteriya xosimlarini chetlab o'tilgan holda amalga oshirilgan kassa hujjatlari ijro uchun qabul qilinmaydi.

Tijorat banklarida, ayniqsa, chakana bank sohasida naqd pul muomalasini yo'lga qo'yish va optimallashtirish ko'plab murakkab jarayonlar ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Tijorat banklarida naqd pul bilan ishlash deb nomlanuvchi ushbu asosiy funksiya naqd pullarni moddiy-texnikaviy boshqarish bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu operatsiyalarini tashkil etishning nuanslarini o'rganish bankning muhim moliyaviy funksiyalarini aniq, xavfsiz va yanada samaraliroq bajarishni ta'minlaydi. Naqd pul bilan ishlashda xavfsiz tartibni yaratish juda muhimdir. Bunda bu aktivlarini himoya qilish bilan bir vaqtida naqd pul operatsiyalarini osonlashtirish uchun kassalar va naqd pulni qayta ishlash qurilmalar va boshqa muhim komponentlarni o'z ichiga oladi. Naqd pullarni qayta ishlash qurilmalari, naqd pul bilan ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlari va raqamli platformlar kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish naqd pulni qayta ishlash vazifalarining samaradorligini, shuningdek, aniqligini oshirish mumkin. Ushbu texnologiyalarini mavjud operatsiyalarga muammosiz integratsiyasa qilish tezlik va aniqlikni oshirish inson xatolarini kamaytirish mumkin bo'ladi. Naqd pulga bo'lgan talabni aniqlashda

prognozlash vositalari va metodologiyalaridan foydalanish zarur. Naqd pulga bo'lgan talabni aniqlash va to'ldirish bo'yicha samarali tartiblarni o'rnatish naqd pul bilan bog'liq risklarni minimallashtirish bilan birga likvidlilikning maqbul darajasini saqlab qolishga yordam beradi.

Naqd pul tartibga solishda infrastruktura asosiy o'rinni egallaydi. Bank filiallarida naqd pullarni saqlash va uning xavfsizligini ta'minlash o'g'irlik yoki xatolarni minimallashtirish uchun ham zaruriy hisoblandi. Naqd pul ayriboshlash shahobchalarinining tarmog'ini shakllantirish va kengaytirish orqali mijozlarga yengillilar yaratish chakana biznesda naqd puli tashkil etishning bo'g'ini hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi qonuni, Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Tijorat banklarida kassa ishlarini tartibga soluvchi normativ hujjatlar", Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank-moliya tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" gi farmoni, Toshkent, 2021.
4. Vadlamani ravi. "Introduction to banking technology and management", 2016.